

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI



Raxmonzoda Muazzama Jasuriy

Tarjimonlik fakulteti talabasi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy rahbar: Nodira Toliboyevna Odiljonovna

O‘zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-16>

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm va uning turlari, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida qisqacha ma’lumot, turizmning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotining yaxshilanishidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: turizm, turizm turlari, turistik manzilgohlar, iqtisodiy rivojlanish, turizmdagi asosiy ko‘rsatkichlar

Аннотация: В данной статье обсуждаются туризм и его виды, осуществляемые в этой сфере реформы, их значение в улучшении социально-экономической жизни страны.

Ключевые слова: туризм, виды туризма, туристические места, экономическое развитие, основные показатели туризма

Abstract: This article discusses tourism and its types, reforms carried out in this area, their importance in improving the socio-economic life of the country.

Key words: tourism, types of tourism, tourist places, economic development, main indicators of tourism

Bugungi zamonaviy dunyoda turizm sohasining ahamiyati kundan-kunga ortib, mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Avvalo, bu so‘zining kelib chiqishi va lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, “turizm” so‘zi fransuzcha “tourisme” so‘zidan olingan bo‘lib, “sayr, sayohat, sayohat qilish” degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, uning tarixi XIX asr boshlariga borib taqalib, dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgani ma’lumdir.

Turizm sohasi ham o‘z ichida bir nechta turlarga bo‘linadi. L.Yu.Aleksandrova (2008-y) ma’lumotlari bo‘yicha turizm sohasidagi maxsus turlar quyidagilardan iborat:

1. Shahar turizmi
2. Ishchanlik turizmi
3. Qishloq turizmi
4. Ekologik turizm
5. Sport turizmi
6. Ziyoratgoh turizmi

O‘zbekiston Respublikasida ham bu sohada azaldan kerakli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-iyuldagi Farmoniga binoan “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tashkil qilindi. Bu kompaniya O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi, “Inturtaj” qo‘shma korxonasi, “Sayyoh-Intur” respublika xo‘jalik hisobidagi birlashmasi va sobiq “Goskominturist” korxonalarini asosida tashkil qilindi. “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi bir necha yillik faoliyati davomida milliy va xalqaro turizmni qayta tiklash, moddiy-texnik va me’yoriy bazani mustahkamlash va kengaytirish, yangi turizm marshrutlarini ishlab chiqish, ekskursiya mavzularini yangilash, mavjud turizm baza va kempinglarini takomillashtirish va yangilarini tashkil qilish, qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish hajmini oshirish bo‘yicha ma’lum miqdordagi ishlarni amalga oshirdi. 1992-yildayoq “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tizimida 135 korxonalar bor bo‘lib, ular ichida jami 10 ming o‘rinlik 34 mehmonxona, turbazalar, kempinglar, motellar bo‘lgan. Kompaniya asosiy

fondlarining qiymati 1,6 mlrd soʻmni tashkil qilib, ularning 79 foizi qurilganiga 15-20 yil boʻlgan bino va ishootlardan iborat. Respublikada turizm yoʻnalishi boʻyicha 1992-yil davomida 408 ming kishiga xizmat koʻrsatildi, ulardan 40 ming kishi Hindiston, Pokiston, Turkiya, Janubiy-Sharqiy Osiyodan, 30 foizi yevropadan va 10 foizi Shimoliy va Lotin Amerikasidan kelgan turistlar boʻlgan. Oʻzbekistonlik sayyohlardan 60 ming kishi chet ellarga yuborildi. Shu oʻrinda, 1996-yilda respublikamizga tashrif buyurgan turistlar soni 550 ming kishiga yetgan. Shu bilan bir qatorda ichki turizm koʻrsatkichlarida ham ijobiy natijalar qayd etildi. 2016-yil bilan solishtirganda, 2019-yilda mahalliy sayyohlarning soni deyarli 2 barobarga koʻpayib, 14,7 millionga yetdi. Aytish lozimki, pandemiyaning boshlanish nuqtasi 2019-yilda koʻrsatilgan turistik xizmatlarning umumiy hajmi 1,5 mlrd. dollardan oshgan boʻlsa, eksport koʻrsatkichlari 1,3 milliardga yetib, umumiy xizmatlar eksportining 38,2 foizini tashkil etdi. Koronavirus pandemiyasi sababli yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, “Uzbekistan Safe travel” guaranteed (“Oʻzbekiston, Xavfsiz sayohat kafolatlangan”) loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha sayyohlarga moʻljallangan boʻlib, jahon standartlariga asoslangan sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning yangi tizimi hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda ham turizm sohasidagi koʻrsatkichlar oshib bormoqda. Oʻzbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 2017-yilda 2,7 mln nafar boʻlsa, 2022- yilda 5,2 mln., 2023-yilda 4,3 mln.dan ortgan. Turistlarning mamlakatimizda oʻrtacha qolish muddati 4–5 kuni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 baravarga ortdi.

Sohadagi bu koʻrsatkichlar, tabiiyki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekistonda 2019-yilda turizmning YaIMdagi ulushi 3,4%ni, yillik oʻsish surʼati esa 12,3%ni tashkil etdi. Turizm sohasida band boʻlganlar soni 601,7 ming kishiga teng boʻlib, ular umumiy bandlarning 4,6%ni tashkil etdi. Turizm xizmatlari eksportining mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 21,1%ga teng boʻldi. Turistik safarlar turistlar tomonidan muayyan tovar va xizmatlarga talabni taqozo qiladi hamda ushbu tovar va xizmatlarning koʻproq ishlab chiqarilishiga olib keladi. Natijada, mamlakat YaIM hajmi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm mamlakat va uning aholisini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu sohani iqtisodning ustuvor yoʻnalishlaridan biri deb hisoblab, uning salohiyatini oshirishda yetarlicha shart-sharoitlar yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Александрова Л.Ю. География туризма. Москва. 2008.
2. Gʻulomxasanov E.M., Rahmatillaev O.X. Oʻzbekistonda turizm sohasining davlat rivojiga qoʻshgan hissasi. “Central Asian Academic Journal of Scientific Research”. ISSN: 2181-2489. Volume 1, Issue 1, 2021.
3. Kun.uz rasmiy sayti
4. Toshmatov Sh.U. Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. ISSN: 2181-1784. Volume 1, Issue 4.